

42-mavzu: [p] tovushi. Pp harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [p] tovushining talaffuzi va Pp harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- soʻzlardan [p] tovushining oʻrni aniqlashni oʻrganadilar;
- soʻzni boʻgʻinga boʻlib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch soʻzlar: ipak qurti, [p] tovushi ishtirokidagi soʻzlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi va boʻgʻinli kartochkalar, kesma harflar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : Oʻquvchilardan bugungi kun sanasi soʻraladi.

Soʻzlarni boʻgʻinlab aytamiz mashqi: Oʻqituvchi oʻquvchilarga bir boʻgʻinli soʻzlarni topib boʻgʻinga boʻlib aytishlarini soʻraydi.

-Bugun siz bilan "Soʻzlarni boʻgʻinlab aytamiz" mashqini oʻtkazamiz. Bir boʻgʻinli soʻzlarni topib boʻgʻinga boʻlib ayting.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bogʻliqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta soʻzni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

palov- 2 boʻgʻin , 1- boʻgʻin -pa, 2-bogʻin –lov chizmada

Qolgan soʻzlar qatorlarga boʻlingan holda bajarish tavsiya etiladi.

Unda oʻquvchilar berilgan soʻzning chizmasini chizadilar va tekshirib oladilar:

1-qator: patir

2-qator: piyola

3-qator: patnis



Darslik

[p] tovushi, Pp harfi 42-dars

Rasmga qarang. P harfi qatnashgan soʻzlarni topib, ularga mos chizma chizing.

ke pak ya
po
gil la tir
pal pa lov
pay poq qel

pa-na	kap-ter	ka-pa-lak
pi-la	pos-bon	poy-de-vor
pan-da	pat-nis	par-ran-da

Ipak qurti

Bir bor e-kan, bir yoʻq e-kan, tut-zor-da
i-pak qur-ti va ka-pa-lak boʻl-gan e-kan. Ka-
pa-lak qa-not-la-ri tur-il-tu-man tov-la-nar-kan.
U-ni koʻ-rib i-pak qur-ti ro-sa zavq-la-nib-di.
I-pak qur-ti i-pak oʻ-ray-ve-rib-di oʻ-ray-
ve-rib-di. Bir ku-ni er-ta-lab qa-ra-sa, en-di u
i-pak qur-ti e-mas, ka-pa-lak e-kan. U tut-
zor-da-gi tut-ga qoʻ-nib, qa-not-la-ri-ni pir-
pi-ra-tib, koʻz-ni qu-von-ti-rib-di.

53

Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa) Harflar tasmasidan oʻtilgan harflar esga olinadi.

Koʻrsatkichlar yordamida soʻzlar hosil qilinadi va oʻqiladi.

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi. Pat pa-tir

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

“Ipak qurti” ertagi oʻqiladi. Ertak matni mazmuni yuzasidan savol -javob oʻtkaziladi.

Bir bor e-kan, bir yo'q e-kan, tut-zor-da i-pak qur-ti va ka-pa-lak bo'l-gan e-kan. Kapa-lak qa-not-la-ri tur-li - tu-man tov-la-nar-kan. U-ni ko'-rib i-pak qur-ti ro-sa zavq-la-nib-di. I-pak qur-ti i-pak o'-ray-ve-rib-di - o'-rayve-rib-di. Bir ku-ni er-ta-lab qa-ra-sa, en-di u i-pak qur-ti e-mas, ka-pa-lak e-kan. U tutzor-da-gi tut-ga qo'-nib, qa-not-la-ri-ni pirpi-ra-tib, ko'z-ni qu-von-ti-rib-di.

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. Rasmlarni ifodalovchi so'zlarni ayting. So'zda [b] tovushi qatnashsa b harfini, agar [p] tovushi so'zda bo'lsa unda p harfini bo'yang.

2. Rasmni ifodalovchi so'zlarni topib birlashtiring. (pol, bol, qor, dor)
Bu so'zlar qaysi harflar bilan farq qilayotganini ayting.

Darsga yakun yasash: Refleksiya mashqi

Davom ettiring:

Men bugun darsda... bilib oldim.

Menga... qiziq bo'ldi.

43-mavzu: [g] tovushi. Gg harfi

Dars maqsadi:

- [g] tovushining talaffuzi va Gg harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [g] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [g] harfining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [g] tovushi ishtirok etgan so'z va gaplarni o'qishni o'rganadilar.

Tayanch so'zlar: ikkita so'zdan so'z hosil bo'lishi, [g] tovushi

Didaktik materiallar: rasmi kartochkalar, donli o'simliklar rasmi

Darsning borishi:

I. Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Meni top mashqi: O'qituvchi doskaga .ola so'zidagi harflarni tushub qolgan tarzda yozadi. O'quvchilardan shu so'zlarda tushurib qoldirilgan harflarni topishni so'raydi.

- Bugun siz bilan "Meni top" mashqini o'tkazamiz. Doskada yozilgan so'zda yashirinib tushib qolgan. Harflarni topib qo'ysangiz so'z hosil bo'ladi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)